



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

DUAL TA'LIMNI AMALGA OSHIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON SHAROITIDA MODELLASH

Sulaymonova Saodat Usubxonovna

Namangan davlat pedagogika instituti, (DSc)

Mannopxonova Barnoxon Mavlonxon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti, magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada bugungi kunda zamonaviy ta'lim tizimida yetakchilik qilib kelayotgan dual ta'lim tizimining pedagogik mexanizmlari, ularning amaliyotdagi roli, xalqaro tajriba va O'zbekiston sharoitida tatbiq etish imkoniyatlari tahlil qilingan. Maqolada ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlik jarayonlari, ustoz shogird ananalari, baholash usullari va ijtimoiy-psixologik yondashuvlarni yoritgan holda, aniq xulosalar va takliflar qayd etilgan

Kalit so'zlar: dual ta'lim, pedagogik mexanizm, xalqaro tajriba, O'zbekiston, kasbiy ta'lim, grand, rag'batlantirish, bilim, ko'nikma, malaka, baholash, mustaqil faoliyeta, amaliy tajriba interaktiv ta'lim.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РЕАЛИЗАЦИИ ДУАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И МОДЕЛИРОВАНИЕ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА

Сулаймонова Саодат Усубхоновна

Наманганский государственный педагогический институт, (DSc)

Маннопхонова Барнохон Мавлонхон кизи

Наманганский государственный педагогический институт, магистрант

Аннотация

В статье анализируются педагогические механизмы дуальной системы образования, являющейся в настоящее время ведущей в современной системе образования, их роль на практике, международный опыт и возможности её внедрения в условиях Узбекистана. Освещаются процессы взаимодействия образования и производства, традиции взаимоотношений педагога и ученика, методы оценки и социально-психологические подходы, делаются конкретные выводы и предложения.

Ключевые слова: дуальное образование, педагогический механизм, международный опыт, Узбекистан, профессиональное образование, грант, стимул, знания, умения, навыки, квалификация, оценка, самостоятельная деятельность, практический опыт, интерактивное образование.

PEDAGOGICAL MECHANISMS FOR THE IMPLEMENTATION OF DUAL EDUCATION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND MODELING IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN

Sulaymonova Saodat Usubkhonovna

Namangan State Pedagogical Institute, (DSc)

Mannopxonova Barnokhon Mavlonkhon qizi

Namangan State Pedagogical Institute, Master's Student

Abstract

This article analyzes the pedagogical mechanisms of the dual education system, which is currently leading in the modern education system, their role in practice, international experience

and the possibilities of its implementation in the conditions of Uzbekistan. The article highlights the processes of cooperation between education and production, the traditions of the teacher-student relationship, assessment methods and socio-psychological approaches, and makes specific conclusions and proposals.

Keywords: dual education, pedagogical mechanism, international experience, Uzbekistan, vocational education, grant, incentive, knowledge, skills, qualifications, assessment, independent activity, practical experience, interactive education.

XXI asrda global iqtisodiyot va texnologiyalarning tez sur'atlar bilan rivojlanishi natijasida kadrlar tayyorlash tizimida tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Mehnat bozori ta'lim tizimi va ishlab chiqarish oldiga yangi talablarni qo'yimoqda: zamonaviy mutaxassis nafaqat nazariy bilimga, balki yuqori darajadagi amaliy ko'nikmalarga ham ega bo'lishi shart. Shu sababli ko'plab davlatlar ta'lim tizimini ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgan holda tashkil etish, ya'ni dual ta'lim tizimini joriy etishga katta e'tibor qaratmoqda. So'nggi yillarda O'zbekistonda ham dual ta'lim tizimini joriy etish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida ilgari surilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ta'lim tizimini isloh qilishga doir farmon va qarorlari doirasida professional ta'lim muassasalarining ishlab chiqarish bilan uzviy aloqasini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq tizimning samarali ishlashi uchun pedagogik mexanizmlar va xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda moslashtirilgan modellarni ishlab chiqish talab etiladi. Ushbu maqolada dual ta'limni amalga oshirishdagi pedagogik mexanizmlar tahlil qilinib, dunyoning ilg'or davlatlari tajribasi hamda O'zbekiston sharoitida ularni modellar yo'llari ko'rib chiqiladi. Maqolaning maqsadi O'zbekistonda dual ta'limni samarali joriy etish uchun zarur bo'lgan pedagogik va tashkiliy mexanizmlarni aniqlash hamda amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili

Dual ta'lim konsepsiyasi zamonaviy pedagogik yondashuvlarga tayanib, ta'lim jarayonida nazariy bilimlar va amaliy tajribaning yaxlit holda shakllanishini ko'zda tutadi. Bu yondashuvda o'quvchi yoki talaba nafaqat fanlarni o'rganadi, balki ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish sohasida bevosita ish faoliyatiga ham jalb qilinadi. Mazkur ta'lim modeli nazariy bilim berish va amaliy tajriba orttirishni o'zida mujassam etgan ikki tomonlama pedagogik tizimni ifodalaydi. Ushbu yondashuvga ko'ra, o'quv jarayoni maktab yoki oliy ta'lim muassasasidagi nazariy mashg'ulotlar bilan korxonalar yoki ishlab chiqarish joylaridagi amaliy mashg'ulotlardan tashkil topadi. Pedagogik nuqtayi nazardan qaralganda, dual ta'lim o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi hamda muammoli vaziyatlarni tahlil qilish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, u o'quvchilarning o'ziga xos o'quv uslubi va qiziqishlariga moslashuvchanlikni ta'minlaydi. Bugungi kunda dunyoda ta'limda kompetensiyaviy yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Kompetensiya — bu o'quvchining aniq sharoitlarda samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy xususiyatlar majmuasidir. Dual ta'limda ta'lim jarayoni aynan shu kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltiriladi. Amaliyotda qo'llaniladigan ko'nikmalar, ish beruvchilar tomonidan talab qilinadigan malakalar, shuningdek, mehnat bozoridagi ehtiyojlar ta'lim dasturlariga bevosita integratsiyalashadi.

Ishlab chiqarish bilan integratsiya

Dual ta'limning asosiy tamoyili ta'lim muassasalari bilan ishlab chiqarish korxonalarini o'rtasida mustahkam hamkorlik o'rnatishdir. Bu hamkorlik ta'lim jarayonini bozor talablariga moslashtirish, o'quvchilarning amaliyotni real sharoitda o'tashini ta'minlash, ularning ish faoliyatiga tayyorgarligini oshirish imkonini beradi.

Pedagogik nuqtayi nazardan ishlab chiqarish bilan uzviy bog'lanish o'quvchilarda kasbiy motivatsiyani oshiradi, mustaqil ishlash va jamoada faoliyat yuritish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu tariqa dual ta'lim tizimi nafaqat nazariy bilimlarni, balki ishlab chiqarishda

zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarni ham samarali egallashni ta'minlaydi.

Donald Shon tomonidan ilgari surilgan reflektiv amaliyot konsepsiyasi ham dual ta'lim pedagogikasida muhim ahamiyatga ega. Talaba yoki o'quvchi amaliyot jarayonida yuzaga kelgan qiyinchiliklar va muvaffaqiyatlar haqida mulohaza yuritadi, o'z faoliyatini tahlil qiladi va o'z ustida ishlaydi. Bu jarayon ta'lim samaradorligini oshiradi hamda o'rganishni chuqurlashtiradi.

Differensiallashtirilgan yondashuv

Har bir o'quvchi o'ziga xos qobiliyat va ehtiyojlarga ega. Shuning uchun dual ta'limda ta'lim jarayoni differensiallashtirilgan bo'lishi lozim, ya'ni o'quvchilar individual o'rganish uslublari, qobiliyatlari va professional maqsadlariga mos ravishda yo'naltirilishi kerak. Pedagoglar va ishlab chiqarish ustalari o'rtasidagi hamkorlik bu yondashuvni ta'minlaydi.

Raqamli va innovatsion texnologiyalar integratsiyasi

Bugungi kunda dual ta'limda raqamli texnologiyalar keng qo'llanilmoqda. Virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar, interaktiv ta'lim platformalari o'quvchilarni real ish jarayoniga tayyorlashda muhim yordam beradi. Pedagogik jarayonda innovatsion texnologiyalarni joriy etish ta'lim sifatini va qamrovini oshiradi.

O'zbekiston ta'lim tizimidagi dual yondashuvning joriy holati

O'zbekiston Respublikasida professional va kasb-hunar ta'limini rivojlantirish, ayniqsa dual ta'lim tizimini joriy etish sohasida so'nggi yillarda sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda. Mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish strategiyalarida malakali kadrlar tayyorlashga katta e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ta'lim tizimini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari, xususan 2017-yildan boshlab amalga oshirilayotgan islohotlar dual ta'limni joriy qilishni davlat darajasida qo'llab-quvvatlashning asosiy omili bo'ldi. Professional ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida hamkorlikni mustahkamlash, o'quv dasturlarini ishlab chiqarish ehtiyojlariga moslashtirish, o'qituvchi va ustozlarni qayta tayyorlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Dual ta'limda asosiy e'tibor quyidagilarga qaratilgan:

- o'quv dasturlarini ishlab chiqarish talablariga moslashtirish;
- amaliyot o'tash maqsadida korxonalar bilan shartnomalar imzolash;
- ustoz-o'qituvchilar malakasini oshirish va ularning ishlab chiqarish jarayonlariga jalb etilishi;
- talabalar uchun ish joylarini ta'minlash.

O'zbekiston sharoitida dual ta'lim tizimini rivojlantirishda bir qancha muammolar mavjud:

- korxonalar bilan pedagogik va tashkiliy hamkorlik yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan;
- amaliyot uchun zarur jihozlar va resurslar cheklangan;
- pedagog-o'qituvchilar va ustozlar malakasini oshirish tizimi hali to'liq shakllanmagan, garchi u bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda;
- ijtimoiy himoya va mehnat qonunchiligidagi ayrim nomuvofiqliklar talabalar va ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlikni murakkablashtirmoqda.

Shunga qaramay, O'zbekiston hukumati tomonidan dual ta'limni kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda. Yangi qonunchilik tashabbuslari, davlat-xususiy sheriklik loyihalari, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorliklar (masalan, GIZ, UNICEF, ILO) bu jarayonni jadallashtirmoqda.

Shuningdek, yoshlarning bandligini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda dual ta'lim samarali vosita sifatida tan olinmoqda. Bu tizim iqtisodiyotning turli sohalarida malakali ishchi kuchini yetishtirishga katta hissa qo'shadi.

Dual ta'limda pedagog va ustozlarning professional malakasi alohida ahamiyatga ega. O'zbekiston sharoitida o'qituvchilarni ishlab chiqarish sharoitlariga yaqinlashtirish, ularni amaliyotda ishtirok etishga jalb etish uchun malaka oshirish kurslari tashkil etilmoqda. Biroq bu

tizim hali to'liq shakllanmagan va ko'p jihatdan tashkiliy hamda moddiy resurslar bilan bog'liq muammolarga duch kelmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda seminarlar, master-klasslar o'tkazish, chet ellik ekspertlarni jalb qilish amaliyoti yo'lga qo'yilmoqda.

Talabalar bandligini ta'minlash va ijtimoiy himoya

Dual ta'lim tizimida talabalar ishlab chiqarish joylarida faoliyat olib boradi, bu esa ularning bandligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston qonunchiligida bu jarayonni tartibga solish, talabalar va ish beruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan mustahkamlash uchun normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish zarurati mavjud. Shuningdek, talabalar uchun ijtimoiy himoya tizimi — sug'urta, mehnat sharoitlari, xavfsizlik kafolatlari va mehnat ta'tili kabi masalalar ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Bu sohada ham amaldagi qonunchilikni qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish ishlari olib borilmoqda.

Dual ta'limni rivojlantirishda moddiy-texnik bazani mustahkamlash ham muhimdir. O'zbekiston kasb-hunar ta'limi muassasalari ko'pincha yetarli jihozlarga ega emas, bu esa sifatli amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishni qiyinlashtiradi. Shu bois davlat va xususiy sektor o'rtasida moliyaviy sheriklikni rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Yangi texnologiyalarni joriy qilish, zamonaviy o'quv-uskunalarni xarid qilish, o'quvchilar uchun qulay sharoitlar yaratish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridandir.

Xalqaro hamkorlik va tajriba almashish

O'zbekiston dual ta'limni rivojlantirishda Germaniya, Shveysariya kabi davlatlarning ilg'or tajribasini o'rganmoqda. Buning uchun xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan, GIZ (Nemis xalqaro hamkorlik jamg'armasi) ko'magida kasb-hunar ta'limi muassasalarida malaka oshirish va o'quv dasturlarini yangilash bo'yicha ishlanmalar olib borilmoqda. Xalqaro tajribani o'zlashtirish O'zbekiston ta'lim tizimining sifatini oshirishga va kadrlar tayyorlashning zamonaviy standartlarini joriy etishga xizmat qilmoqda.

Dual ta'limni amalga oshirishdagi pedagogik mexanizmlar: natijalar va muhokama

Dual ta'lim tizimining samarali ishlashi uning pedagogik mexanizmlariga bevosita bog'liq. Pedagogik mexanizmlar — bu ta'lim jarayonini tashkil etish, boshqarish va qo'llab-quvvatlash uchun qo'llaniladigan usullar, tamoyillar va vositalar majmuasidir. Quyida dual ta'limni amalga oshirishda muhim hisoblangan asosiy pedagogik mexanizmlar tahlili keltiriladi.

Nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni integratsiyalash

Dual ta'limning pedagogik asoslaridan biri nazariy bilimlarni ishlab chiqarish jarayonidagi amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirishdir. Bu maqsadda o'quv dasturlari ishlab chiqilganda nazariy fanlar va amaliy mashg'ulotlarning o'zaro muvofiqligi ta'minlanadi. Ta'lim jarayonida nazariy bilimlarni ishlab chiqarish sharoitida qo'llashga doimiy ravishda urg'u beriladi.

Individual yondashuv va differensiallashtirish

Har bir o'quvchi yoki talabaga uning shaxsiy xususiyatlari, qobiliyatlari va rivojlanish darajasini hisobga olgan holda ta'lim berish pedagogik mexanizmlarning muhim qismidir. Dual ta'limda individual yondashuv talabalarni amaliy mashg'ulotlarda o'z imkoniyatlariga qarab faol jalb qilishni, o'quv jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etishni ta'minlaydi.

O'quv jarayonining interaktiv usullari

Dual ta'limda an'anaviy auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari seminarlar, treninglar, muammoli o'qitish, loyiha asosida ishlash kabi interaktiv ta'lim usullari keng qo'llaniladi. Bu usullar o'quvchilarning faol ishtirokini rag'batlantiradi va muammolarni mustaqil hal etish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Pedagogik hamkorlik va mentorlik tizimi

Dual ta'limda pedagog va ustozlar o'rtasidagi hamkorlik, shuningdek, o'quvchilar bilan individual ishni tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Mentorlik tizimi o'quvchilarning ishlab chiqarish jarayonida yuzaga kelgan qiyinchiliklarini hal qilishga yordam beradi, ularni kasbiy rivojlanishga yo'naltiradi.

Baholash va feedback mexanizmlari

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning nazariy va amaliy bilimlari hamda ko'nikmalari muntazam baholanishi lozim. Dual ta'limda baholash nafaqat imtihonlar orqali, balki amaliy ish natijalari, loyiha ishlari samaradorligi va ustozlarning xulosalari orqali ham amalga oshiriladi. Olingan feedback o'quv jarayonini takomillashtirish va individual o'quv rejasini ishlab chiqishda qo'llaniladi.

Innovatsion texnologiyalar va resurslardan foydalanish

Zamonaviy pedagogik mexanizmlar qatoriga interaktiv platformalar, virtual treninglar, simulyatorlar, mobil ilovalar va boshqa raqamli vositalarni qo'llash kiradi. Bu texnologiyalar o'quv jarayonini yanada qiziqarli, samarali va moslashuvchan qiladi, talabalarni ishga tayyorlash sifatini oshiradi.

Dual ta'lim tizimining samarali faoliyat ko'rsatishi ta'lim jarayonini tashkil qilishda foydalaniladigan pedagogik mexanizmlarning sifatiga bog'liq. Ushbu mexanizmlar o'quvchilarning nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalarini uyg'unlashtirish, ularning kasbiy va shaxsiy rivojlanishini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Dual ta'limda ustoz va pedagoglarning o'quvchilarga bo'lgan munosabati hamda ular o'rtasidagi o'zaro hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda mentorlik tizimi ustozlarning o'quvchilarning kasbiy rivojlanishini individual tarzda boshqarib borishiga, ularning qiyinchiliklarini aniqlab, psixologik va kasbiy yordam ko'rsatishiga xizmat qiladi. Pedagoglar va ishlab chiqarish mutaxassislari o'rtasidagi uzviy aloqa esa ta'lim jarayonining mazmuni va sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Ular birgalikda o'quv dasturlarini moslashtirishda va o'quvchilarning natijalarini baholashda ishtirok etadilar.

Ta'lim sifatini ta'minlashda baholash tizimi muhim rol o'ynaydi. Dual ta'lim amaliyotida baholash turli shakllarda olib boriladi: joriy (formativ) baholash, yakuniy (summativ) nazorat, ishlab chiqarish joylaridagi baholash, shuningdek, o'quvchilarning o'z-o'zini va o'zaro baholash mexanizmlari shular jumlasidandir.

Doimiy va ko'p tomonlama feedback mexanizmi ta'lim sifatini oshirishga, shuningdek, o'quvchilarning motivatsiyasini saqlashga xizmat qiladi.

Zamonaviy texnologiyalar dual ta'limda nafaqat o'quv jarayonini yaxshilash, balki ta'lim samaradorligini oshirish uchun ham muhim vositadir:

- virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar yordamida murakkab texnik jarayonlar xavfsiz sharoitda o'rganiladi;
- interaktiv o'quv platformalari o'quvchilarga o'zlashtirish sur'atini o'lchash va individual rivojlanish yo'nalishini belgilash imkonini beradi;
- mobil texnologiyalar va onlayn o'qitish vositalari ta'lim jarayonini moslashuvchan va qulay qiladi, ayniqsa uzoq hududlarda istiqomat qiluvchi o'quvchilar uchun.

Bu jarayon ta'lim mazmunining amaliy ahamiyatini oshiradi va talabalarni mehnat bozori talablari bilan moslashtiradi.

O'zbekiston sharoitida ustoz va o'qituvchilar malakasini oshirish tizimi yanada tizimli va uzluksiz bo'lishi kerak. Bu quyidagi choralarni o'z ichiga olishi mumkin:

- ishlab chiqarish joylarida amaliyot o'tash va yangi texnologiyalar bilan tanishtirish;
- xalqaro ekspertlar bilan hamkorlikda treninglar va seminarlar tashkil etish;
- malaka oshirishni raqamli platformalar orqali olib borish.

Mentor va pedagoglar kompetensiyalarini doimiy ravishda yangilab borish orqali ta'lim jarayonining natijadorligi va zamonaviyligi sezilarli darajada ortadi.

Dual ta'limda o'quvchilar ko'pincha yangi, ishlab chiqarish muhitida o'zini tutish qiyin bo'lgan vaziyatlarga duch keladi. Shu bois ularning psixologik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishi pedagogik mexanizmlarning ajralmas qismi hisoblanadi:

- psixologik maslahatlar va treninglar tashkil etish;
- motivatsiyani oshirish uchun rag'batlantirish tizimini joriy etish;

- talabalar uchun shaxsiy rivojlanish va stressni boshqarish bo'yicha kurslar tashkil etish.
Bu jihatlar o'quvchilarning o'z-o'zini anglashini va kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi.

Korxonalar va ta'lim muassasalari o'rtasida samarali pedagogik hamkorlikni yaratish uchun:

- hamkorlik shartnomalarini muntazam yangilab borish;
- korxonalar mutaxassislarini ishtirokida o'quv dasturlarini ishlab chiqish;
- amaliy mashg'ulotlarni ishlab chiqarish sharoitlariga moslashtirish;
- korxonalar tomonidan o'quvchilarga mentorlik xizmatlarini ko'rsatish zarur.


Bu pedagogik mexanizm dual ta'lim sifati va o'quvchilarning ishga tayyorgarligini oshirishda muhim o'rin tutadi.

O'zbekistonda dual ta'lim baholash mexanizmlari quyidagicha takomillashtirilishi kerak:

- baholash mezonlarini ishlab chiqarish sharoitlariga moslashtirish;
- baholash jarayonida o'quvchilar, ustozlar va ishlab chiqarish rahbarlari fikrlarini uyg'unlashtirish;
- raqamli baholash tizimlarini joriy etish orqali natijalarni avtomatlashtirish.

Bu tizim ta'lim sifati oshirishga va o'quvchilarning real ko'nikmalarini aniqlashga yordam beradi.

Pedagogik mexanizmlar dual ta'limning nazariy asoslarini amaliyotga tatbiq etish, o'quvchilarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishini ta'minlashda muhim vositadir. O'zbekiston sharoitida ushbu mexanizmlarni milliy iqtisodiyot talablariga moslashtirish, o'qituvchilar va ustozlarni doimiy malaka oshirishga jalb qilish, ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, sanoat bilan tizimli hamkorlikni rivojlantirish va baholash tizimini modernizatsiya qilish orqali dual ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin.



Shveysariya: moslashuvchanlik va innovatsiyalar

Shveysariyada dual ta'lim tizimi korxonalar va hudud ehtiyojlariga moslashtirilgan:

- hududiy moslashuvchan ta'lim dasturlari ishlab chiqiladi, mahalliy sanoat tarmoqlariga urg'u beriladi;
- innovatsion pedagogik usullar, jumladan, loyiha asosida o'rganish va raqamli platformalar keng qo'llaniladi;
- kasbiy rivojlanish yo'llarining ko'p variantlari mavjud bo'lib, talabalar o'z qiziqishlariga mos yo'nalishni tanlay oladilar.

Janubiy Koreya: texnologiyaga asoslangan dual ta'lim

Janubiy Koreyada dual ta'lim tizimi texnologiyalarni keng joriy etishga asoslangan:

- virtual treninglar va simulyatsiyalar ishlab chiqarish jarayonlarini o'rgatishda keng qo'llaniladi;
- texnologik platformalar orqali baholash va o'qitish jarayonini boshqarish yo'lga qo'yilgan;
- ta'lim muassasalari va texnologik kompaniyalar o'rtasida yaqin hamkorlik mavjud.

Avstraliya: bozor ehtiyojlariga moslashuvchan kasbiy ta'lim

Avstraliyada dual ta'lim tizimi ish beruvchilar va ta'lim muassasalari o'rtasidagi yaqin hamkorlikka asoslanadi:

- ish beruvchilar ehtiyojlari asosida dasturlar ishlab chiqiladi, bu esa o'quvchilarga bozor talablariga mos ko'nikmalarni egallash imkonini beradi;
- keng ko'lamli stajirovkalar va amaliyotlar tashkil etiladi, bu o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshiradi;
- o'quvchilarni ishga joylashishga yo'naltiruvchi maslahat xizmatlari faol ishlaydi.

Kanada: keng qamrovli va inkluziv ta'lim tizimi

Kanadada dual ta'lim tizimi barcha yosh guruhlari va ijtimoiy qatlamlar uchun moslashtirilgan:

- inkluziv ta'lim tizimi imkoniyati cheklangan talabalarni ham qo'llab-quvvatlaydi;
- ko'p tarmoqli kasbiy yo'nalishlar mavjud bo'lib, har bir talabaga o'ziga mos yo'lni tanlash imkoniyati beriladi;
- ta'lim va ishga joylashish o'rtasida kuchli aloqalar yaratilgan, ish beruvchilar bilan doimiy muloqot olib boriladi.

Singapur: davlat boshqaruvi va innovatsiyalarning uyg'unligi

Singapur dual ta'lim tizimini davlat tomonidan samarali boshqaradi:

- markazlashtirilgan boshqaruv va standartlashtirilgan ta'lim dasturlari mavjud;
- davlat tomonidan moliyalashtiriladigan grantlar va stipendiyalar talabalarni rag'batlantirishda asosiy vosita hisoblanadi;
- texnologiyalarni keng joriy qilish va raqamlashtirish ta'lim sifatini oshiradi;
- ishlab chiqarish korxonalarini bilan strategik hamkorlik tizimi yo'lga qo'yilgan.

Xalqaro tajribani O'zbekistonda amaliy tatbiq etish imkoniyatlari va muammolari Imkoniyatlar

- sanoat va iqtisodiyotning rivojlanayotgani — yangi texnologiyalar va korxonalar dual ta'lim uchun keng maydon yaratmoqda;
- davlat tomonidan dual ta'limni rivojlantirishga qaratilgan siyosiy irodaning mavjudligi;
- xalqaro hamkorlik va tajriba almashish imkoniyatlari;
- raqamli infratuzilmaning kengayishi — onlayn ta'lim va interaktiv metodlarni joriy qilish uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Muammolar

- pedagog va ustozlar malakasining yetarli emasligi;
- ishlab chiqarish korxonalarini bilan hamkorlik tizimining zaifligi;
- moliyaviy resurslarning yetishmasligi;
- baholash va monitoring tizimining rivojlanmaganligi;
- ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlashning sustligi.

Xalqaro tajriba asosida O'zbekistonda dual ta'limni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar

- ustozlar va pedagoglarning xalqaro malaka oshirish dasturlarida ishtirokini kengaytirish;
- korxonalar bilan uzoq muddatli hamkorlikni rivojlantirish uchun institutlararo platformalar yaratish;
- davlat tomonidan moliyalashtiriladigan grantlar va rag'batlantirish tizimini joriy etish;
- raqamli ta'lim resurslari va interaktiv o'quv platformalarini kengaytirish;
- ish joyida amaliy ko'nikmalarni baholash tizimini sifatli tashkil etish;
- o'quvchilar va pedagoglar uchun ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash xizmatlarini tashkil etish;
- doimiy monitoring va baholash tizimini shakllantirish.

Xulosa va takliflar

Hozirgi kunda dual ta'lim modeli nazariy bilim va amaliy tajriba integratsiyasiga asoslangan eng samarali kasbiy ta'lim shakllaridan biri sifatida tan olinmoqda. Mazkur maqolada dual ta'limni amalga oshirishning asosiy pedagogik mexanizmlari chuqur tahlil qilinib, xalqaro tajribalar va O'zbekiston sharoitidagi real imkoniyatlar kontekstida o'rganildi.

Xalqaro tajriba, xususan Germaniya, Shveysariya, Janubiy Koreya va boshqa mamlakatlar amaliyoti shuni ko'rsatadiki, dual ta'limning samaradorligi kuchli institutsional hamkorlik, ustoz-shogird an'anasi, malakali kadrlar, zamonaviy baholash mexanizmlari va ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlashga tayanadi. O'zbekiston sharoitida esa bu mexanizmlarni milliy ehtiyojlarga moslashtirish va tizimli ravishda amalga oshirish zarur.

Quyidagi takliflar maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

- **O'qituvchi va ustozlar malakasini oshirish:** ular uchun doimiy amaliyotlar, xalqaro malaka oshirish dasturlari va zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalariga asoslangan treninglar tashkil etish;
- **Korxonalar bilan tizimli hamkorlikni kuchaytirish:** ta'lim muassasalari va sanoat subyektlari o'rtasida shartnomaviy asosda barqaror hamkorlikni yo'lga qo'yish;
- **Baholash tizimini isloh qilish:** ta'lim muassasasi va ishlab chiqarish tashkiloti tomonidan qo'shma baholash mezonlarini ishlab chiqish;
- **Motivatsiya va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish:** talabalar uchun stipendiya, ishga joylashish kafolati va psixologik xizmatlarni tashkil etish;
- **Innovatsion texnologiyalarni joriy etish:** raqamli platformalar, simulyatsiya dasturlari va virtual amaliyot vositalarini keng joriy qilish.

Shunday qilib, dual ta'limni O'zbekiston sharoitida samarali tashkil etish uchun pedagogik, tashkiliy, huquqiy va moddiy-texnik asoslarni kompleks ravishda rivojlantirish talab etiladi. Ana shundagina ushbu tizim mehnat bozori ehtiyojlariga mos, raqobatbardosh va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning barqaror mexanizmiga aylanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Dehmel A. Yevropa Ittifoqida uzluksiz ta'lim makonini shakllantirish: siyosatga tanqidiy yondashuv // Comparative Education. — 2006. — 42-jild, 1-son. — B. 49–62.
2. Euler D. Germaniyaning dual kasbiy ta'lim tizimi: boshqa mamlakatlar uchun model. — Gyuterslo: Bertelsmann Stiftung, 2013.
3. Rauner F., Maclean R. Texnik va kasbiy ta'lim tadqiqotlari bo'yicha qo'llanma. — Dordrext: Springer, 2008.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. 2030-yilgacha dual ta'limni rivojlantirish strategiyasi. — Toshkent, 2023.
5. UNESCO-UNEVOC. Jahon TVET ma'lumotlar bazasi: mamlakat profillari. — 2022.
6. Schön D. A. Refleksiv amaliyotchi: mutaxassislar faoliyat jarayonida qanday fikrlaydi. — Nyu-York: Basic Books, 1983.
7. Bandura A. Ijtimoiy o'rganish nazariyasi. — Englvud-Kliffs: Prentice Hall, 1977.
8. Gonon P. Shveysariyada kasbiy ta'lim va tayyorlash (VET) rivoji // ETF Yearbook. — 2014.
9. Lee J. Janubiy Koreyada ishga asoslangan ta'lim. — Parij: OECD Publishing, 2016.
10. Taylor A., Freeman S. Kanadada ishlab chiqarilgan: shogirdlik dasturlarida mehnatga yo'naltirilgan ta'lim // Journal of Education and Work. — 2011.
11. Tham S. Y. Singapurda dual ta'lim va innovatsion tizim // Asia Pacific Journal of Education. — 2012.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. PQ-3151-son qaror, 2017-yil 15-sentabr. "Kasb-hunar ta'limi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida".